

**2024-2025-O'QUV YILIDA  
UMUMTA'LIM MAKTABLARINING  
9-SINF  
O'QUVCHILARI UCHUN  
ONA TILI VA ADABIYOT  
FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI  
O'TKAZISH BO'YICHA  
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**Javoblari**

(Qisqacha izoh: Ushbu savollar javobi tahliliga qo'shilish yoki qo'shilmaslik ixtiyoriy, shunchaki sizga yordam bermoqni istadim. Telegramm kanalimiz: <https://t.me/Hovvajon>  
Bu kanalda siz bepul MS va attestatsiyaga ham tayyorlansiz)

<https://t.me/Hovvajon>

1-savol

1. (B – 18 ball) Ushbu matnni quyidagi bosqichlar asosida tahlil qiling.

Sinf bo‘yicha faqat Xolmatda motorli **velosiped** bor. **U** **bola**larni **velosipedi** yoniga yo‘latmas, menga bo‘lsa ham **maga** eshittirib: “Ilhom, bir **kataysa** qilib **kelmaysanmi?**” – derdi. 7

@Hovvajonodamova

1) ochiq va yopiq bo‘g‘inlar sonini aniqlang; 34 ta ochiq bo‘g‘in 24 ta yopiq bo‘g‘in

2) matndan ajratilgan so‘zni tovush paychalarining ishtirokiga ko‘ra ajrating: kelmaysanmi?”

k,s-jarangsiz

l,m,n-

jarangli

3) matndan urg‘usi oxirgi bo‘g‘inga tushmaydigan so‘zlarni aniqlang: yo`latmas, kataysa,

kelmaysanmi

2. (B– 18 ball) Ushbu xalq og‘zaki ijodi namunalarining janrini aniqlang.

Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimnan,

Meni olar, kelmas sening qo‘lingnan.

Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo‘lingnan,

Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar. Doston

Yo‘l bo‘lsin-a, yo‘l bo‘lsin,

Bosgan izlaring gul bo‘lsin... Xalq qo`shiqlari

Bir mehmondorchilikda yosh surishtirib qolishdi. Afandiga kelib birov: — Afandi, siz nechaga kirdingiz?—deb so‘radi. — Bu yil qirqqa kirdim, — dedi Afandi. — Iye, — dedi boyagi kishi,— bundan o‘n yil ilgari ham qirqqa kirdim degan edingiz-ku? Afandi javob berdi: — Qiziq odam ekansiz, kishining gapi bitta bo‘ldi-da. Latifa

d) Mamayunus aka uxbab yotgan Erka qorini asta turtib:

Turing, Qori aka, Kurotga(kurort) keldingiz! – dedi. Erka qori yostiqdan boshini ko‘tarar ekan, shosha-pishib, paypaslanib, derazadan tashqariga qaragan bo‘ldi-da, darhol yuzini Mamayunus aka tomonga burib:

Hovliqmay qoling, Mamayunus!

Sho`ratepa-ku, – dedi. Askiya

e) O‘zi pillaga o‘xshar, Ichi tillaga o‘xshar. Topishmoq

f) Ahmoqning kulgusi ko‘p,

Dangasaning – uyqusи. Maqol

3. (B – 18 ball) Ushbu matn tarkibidan shakldosh so‘zlarni aniqlab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ovchilar bug‘uni ko‘rmay bog‘ yonidan o‘tib ketishdi. Shunda falokatdan qutuldim deb ko‘ngli taskin topgan bug‘u tok barglarini yeya boshladi. Bir ovchi kamondan o‘q otib uni yaraladi.

**Bog` , tok, o`q (Bu o`rinda asosga qaraydigan bo`lsak ko`rmay, yonidan, yaraladi kabi so`zlar ham bor)**

---

Bog` oralab shirin mevalar ta`midan mast bo`ldim.- Bir bog` beda dalada turgan edi. Tok barglari shabadada tebranar edi.

\_Tok urib qolmasligi uchun ehtiyyot choralarini ko`rmoq lozim

4. (B – 18 ball) Ushbu matnni quyidagi bosqichlar asosida tahlil qiling.

Uni tortqilab sudray boshlashdi, u esa tinmay ingrar, yolvorar, piqillab yig‘lardi. Bolalar uni tunnel oxiridagi uzun xonaga itarib yuborishdi, qaznoq eshigini tambalashdi. **Eshik esa titrardi...** Bolalar unga birpas **quloq** tutib turishdi...

1) qaznoq so‘zining izohini yozing:

---

2) ajratilgan so‘zlar ishtirokida o‘z va ko‘chma ma’noda gaplar tuzing;

1.Uyning eshigi taqilladi- Qalb eshigi yopilmasin

2.Stul titrar edi- Tuyg`ulari qo`rquvdan titrar edi\_

3.Bolaning qulog`i iog`ridi- Qozonning qulog`idan tuting

3) tuzilgan gaplar tarkibidan ko‘p ma’noli so‘zlearning ma’no ko‘chish turini aniqlab, yozing.

\_1-metafora

\_2-metafora

3-metafora

5. (B – 18 ball) Ushbu gap asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring. *Bog‘dag‘i anvoyi gullar ifori har tomonga taralmoqda.* a) gapdan ochiq va yopiq bo‘g‘inlarni aniqlang. \_\_\_\_\_

\_11ta ochiq bo`g`in

8ta yopiq bo`g`in

---

b) tarkibi jarangli va sirg‘aluvchi undoshdan iborat yopiq bo‘g‘inlarni aniqlang. \_\_\_\_\_  
bog` , gul,-lar,-ral

c) gap tarkibidan urg‘u mano farqlaydigan so‘zni aniqlang.

gullar

6. (B – 18 ball) Imom al-Buxoriy hayotiga oid ushbu jumlarlarni mazmunan bog‘lab, 4 – 5 ta gapdan iborat matn yozing

1) muhaddislar; 2) hadislar; 3) chiqargan xulosalarim. \_\_\_\_

Muhaddislar imomi Imom al-Buxoriy hadis ilmining sultonini hisoblangan. Hadislarni to‘plab “Aljome as-sahih” nomli to‘plam chop etgan. Hadislarni o‘qib, Imom Buxoriyning hadis ilmi borasida buyuk iqtidorga ega ekanligi borasida xulosalar chiqardim.(Matnni ixtiyoriy davom ettirish mumkin)

7. (B – 18 ball) Iboralarni izohlab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

1) yeng shimarib- astoyidil kirishib

2) qo‘l uchida- istar-istamas

3) og‘zining tanobi qochgan-o`ylamasdan gapiradigan

8. (B – 18 ball) Ushbu asarlar muallifini aniqlang. Har bir muallif haqida ikkitadan qo‘sishimcha ma’lumot yozing.

a) “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azal muallifi –Lutfiy

1-ma’lumot: 1366-yilda Hirotda tug`ilgan

2-ma’lumot: Lutfiy turkey devoning XVI-XX asrlar mobaynida ko`chirilgan jami 33 nusxasi yetib kelgan

b) “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari muallifi –  
A.Navoiy

1-ma’lumot: 1441-yilda Hirotda tug`ilgan

2-ma’lumot: Turkiy tilda 1-bo`lib “Xamsa” yozgan ijodkor

9. (B – 18 ball) Iboralarni izohlab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

1) og‘zi qulog‘ida \_-xursand

2) qulog‘idan kun ko‘rinadi –ozg`in

3) ko‘ngli ko‘tarilmoq –xursand bo`lmoq

(B – 18 ball) So‘zlarni ma’noli qismlarga ajrating.

1) tarsaki –tars+aki

- 1 3) ikkilanmoq –ikki+lan+moq
- 2 4) onalarcha –ona+larcha
- 3 5) o‘nlarcha – o`n+larcha
- 4 6) yugurganniki – yugur+gan+niki
- 5 7) o‘zbekcha – o`zbek+cha
- 6 8) maqtanchoq –maqta+n+choq
- 7 9) sevinch –sev+inch (asos eski 6-sinf ona tili darsligi 129-bet)

---

### **<sup>i</sup> 2-savol**

1. (B -18 ball) Ushbu mumtoz adabiyoti namunalarining muallifi va janrini aniqlang.

Ahbob, yigitlikni g‘animat tutinguz.

O‘zni qariliq mehnatidin qo‘rqtunguz.

Oyini adovat-u hasaddin o‘tunuz,

Har nav’ ila o‘zni necha kun ovutunguz. **Navoiy ruboiy**

---

Necha dedim ul sanamg‘a: “Bormog‘in”,  
Qilmadi ul tark oxir bormog‘in.

Munchakim xudro‘yliq ko‘rguzdi ul,

Aql hayrat qildi, tishlab bormog‘in. **Navoiy tuyuq**

---

Ko‘ngluma har yonki boqsam, dog‘i bor,  
Har necha dardimni desam, dog‘i bor.

Qilcha tanga bori ishqing yor edi,

Bir sori bo‘ldi firoqing dog‘i bor. **Lutfiy tuyuq**

---

2. (B – 18 ball) So‘zlarni ma’noli qismlarga ajrating.

1) og‘zaki –og`iz+aki

2) jizza –jiz+a

3) boyimoq –boy+i+moq

4) sayroqi – sayra+qi

5) foydalanmoq –foyda+lan+moq

6) sensiramoq –sens+sira+moq

6) tiriklayin – tirik+layin

7) xomligicha – xom-ligicha

8) yog‘ingarchilik – yog`+in+garchilik

9) bajardik – bajar+di+k

3. (B – 18 ball) Matndan keltirilgan parchalarning janrini aniqlang.

---

Kel, dahrni imtihon etib ket,  
Sayri chamani jahon etib ket.  
Bedardlaring jafolaridin  
Faryod chekib, fig‘on etib ket. **\_Nodira ga`zal**

---

Men – sinuq, ko‘nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past,  
Bilmagay holim shikastim ko‘rmagan muncha shikast.

**Navoiy fard**

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,  
Vah, qachon yetkaymen ul dilbanda men.  
Bevafolarg‘a meni qilding asir,  
Sen menga sultonsen, ey dil, banda – men.

**Lutfiy tuyuq**

4. (B – 18 ball) Avaz O‘tar ijodiga mansub parchadan ajratilgan so‘zlarning izohini yozing:

Har tilni biluv emdi ba’ni odama jondur,  
Til vositayi robitayi olamiyondur.  
G‘ayri tilini sa’y qiling bilgani, yoshlar,  
Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.  
Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni,  
Onda o‘qug‘onlar bori yaktoyi zamondur.

**robita – \_aloqa**

**g‘ayri – \_o`zga, chet**

**yaktoyi zamon – \_dunyoda**

**yagona**

5. (B – 18 ball) Abay hayoti va ijodiga oid ushbu jumlalarni mazmunan bog‘lab, 4 – 5 ta gapdan iborat matn yozing.

1) o‘lanlar; 2) yoshlikni behuda sarflama; 3) chiqargan xulosalarim.

Abay qozoq adabiyotining yorqin vakili. Uning ko‘plab she`rlari xalq og`zaki ijodiga yaqin bo`lgan o‘lan tarzida yozilgan. Abayning “Yoshlikdan bilim izlab yugurmadim” deb boshlanuvchi she`rida yoshlikni behuda sarflamaslik, ilm olish g`oyalari ifoda etilgan. Abay she`riyatidan chin insoniy xususiyatlarni o‘rganish borasida xulosalar chiqarish mumkin.

6. (B – 18 ball) So‘zlarni ma’noli qismlarga ajrating.

**1) bo‘yoqchilik -**

**bo`ya+q+chi+lik**

**\_ 2) yuztadan –**

**yuz+tadan**

3) keltirmoqchi

+kel+tir+moqchi \_\_\_\_\_

4) gumburlaydigan –gumbur+la+ydigan

5) sabrsizlik \_-

sabr+siz+lik \_\_\_\_\_

6) uyalganidan \_-

uyal+gan+i+dan \_\_\_\_\_

7) bilmaslik

+bil+maslik \_\_\_\_\_

8) bajardik \_-

bajar+di+k \_\_\_\_\_

9) o'chirg'ichsiz \_-

o`ch+ir+g`ich+siz \_\_\_\_\_

7. (B – 18 ball) Nodira hayoti va ijodiga oid ushbu jumlalarni mazmunan bog'lab, 4 – 5 ta gapdan iborat matn yozing

1) hijron motivi; 2) g'azal; 3) chiqargan xulosalarim.

Nodira ijodida hijron motivi markaziy mavzulardan biri bo'lib, uning shaxsiy hayoti va ijodiy kechinmalari bilan bog`liqdir. Nodira g`azal janrida barakali ijod qilgan va turmush o`rtog`i Umarxonning erta vafoti tufayli g`azallarida hijron mavzusi yetakchilik qilgan. Nodira g`azallaridan shunday xulosaga keldimki, uning she`rlari o'zbek mumtoz adabiyotida hijron motivining yorqin namunalaridan biri bo'lib, o'quvchini chuqr tafakkur va his-tuyg`ular olamiga chorlaydi.

8. (B – 18 ball) Yasalish asosi fe'l bo'lgan yasalmalarni aniqlab yozing.

1) atamoq \_\_\_\_\_

2) sanamoq \_\_\_\_\_

3) sovuq \_\_\_\_-sovi+q \_\_\_\_\_

4) turtkilamoq \_\_\_\_\_

5) gapirmoq \_\_\_\_\_

6) qaynatma (ot) \_-

qaynat+ma \_\_\_\_\_

7) chinqiroq \_-

chinqir+oq \_\_\_\_\_

9. (B – 18 ball) Matndan ajratilgan so'zlarning turkumini aniqlab yozing.

**Filni katta** va **vahimali** xonaga qamab, umrida ko'rmagan **kishilarga** ko'rsatishdi. Xona **qop-qorong'i...** Nafas olishidangina u yerda **haybatli** maxluq borligi **ma'lum** edi. Kishilar **avval** filni **paypaslab** ko'rishdi. **So'ng** ular ko'zlarini **yarim** yumgancha **o'z** tasavvurlarini bayon qilishdi.

ot so'z turkumi filni, kishilarga, \_

fe'l so'z turkumi ko'rsatishdi, paypaslab

---

sifat so‘z turkumi –katta, vahimali, qop-qorong`I, haybatli,ma`lum  
son so‘z turkumi -yarim  
ravish so‘z turkumi –so`ng  
olmosh so‘z turkumi- ular,o`z  
yordamchi so‘zlar-gina

10. (B – 18 ball) Ushbu asarlar muallifini aniqlang.  
Har bir muallif haqida ikkitadan qo‘sishimcha ma’lumot yozing.  
a) “Bir qamar siymoni ko‘rdim baldai Kashmirda...” g‘azali muallifi.

---

1-ma’lumot: Furqat\_1859-yilda Qo`qonda savdogar oilasida  
tug`ilgan

2-ma’lumot – Furqat ijodida 4 ilmiy asar uchraydi  
“To`y tavsifi”, “Gap ta`rifida”, “Aza tavsifi”, “Ilmi ash`orning qoyidayi  
avzoni”

b) “Dardiga darmon istamas” she`r muallifi.

---

1-ma’lumot: \_Hamza-1889-yilda Qo`qonda  
tug`ilgan

2-ma’lumot: \_O`z faoliyati davomida ko`plab maktablar ochgan, badiiy  
asarlar , she`rlar  
yozgan

---

### 3-savol

1. (Q -21 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Kampirning nevaralariga hayhaylashi, bolalarning quvnoq qahqahasi, ustiga  
kichkintoylarni chiqarib olgan Asliddinning jo'rttaga voyvoylashi ochiq darvoza  
osha ko‘chaga eshitilib turardi.

1.ko‘chaga eshitilib turardi 2.darvoza osha eshitilib turardi

3.voyvoylashi eshitilib turardi

4.Asliddinning voyvoylashi

5.ustiga kichkintoylarni chiqarib olgan Asliddinnning

6.Qahqahasi eshitilib turardi

7.quvnoq qahqahasi

**\_8.bolalarning qahqahasi**

**9.hayhaylashi eshitilib turardi**

**10.nevaralariga eshitilib turardi**

**11.Kampirning hayhaylashi eshitilib turardi**

2. (Q – 21 ball) Oybekning “Navoiy” romanidan keltirilgan parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini yozing:

...Zarrin to‘shakda o‘tirgan Husayn Boyqaroga ko‘zi tushishi bilan uning vaziyatini

allanechuk boshqacha sezib, hayratlandi-da, rasmiy ta’zimdan so‘ng, podshohning ishorati bilan unga yaqin o‘tirdi. E’timodli beklar, vazirlar yo‘q...

... Podshoh o‘z hayajonini yashirolmay, achchiq shikoyat bilan dedi:

Dorissaltanatda bir guruham razil avboshlarning fitnasini daf etmoq uchun ne chora buyursak ekan?..

...Navoiy vazminlik bilan murojaat etdi:

– Xoqon yaralik ko‘ngullarning shifosi uchun siz hakimi hoziq bo‘lmoqligingiz

kerak. Kaminaning fikricha, bu yerda qilichning aslo hojati yo‘qdur!”.

**e’timodli – ishonchli**

**dorissaltanat –saltanat o`chog`I, hokimiyat taxi**

**hakimi hoziq –mohir tabib**

3. (Q – 21 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Tabiat inson qo‘liga intellektual kuch-qudratni berdi, lekin u bu qurolni aks tomonga

xizmat qildirishi mumkin.

**—1. Aks tomonga xizmat qildirishi mumkin.**

**2.Qurolni xizmat qildirishi mumkin.**

3.bu qurolni

4.u xizmat qildirishi mumkin

5.kuch -qudratni berdi

6.intellektual kuch-qudratni

7qo`liga berdi

8.insonning qo`liga

9Tabiat berdi

4. (Q – 21 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Barcha tirik mavjudot va o‘simliklar mavjudlikning ilk pallasida nozik va zaif, o‘lim

lahzalarida esa quruq va chirkindir.

1.quruq va chirkindir

2.o`lim lahzalarida quruq

3.O`lim lahzalarida chirkindir.

4.Nozik va zaif

5.Mavjudlikning ilk pallasida nozik

6.Mavjudlikning ilk pallasida zaif

7.O`simliklar nozik

8.O`simliklar zaif

9.MAvjudot nozik

10.Mavjudot zaif

11.Tirik mavjudot

12.Barcha mavjudot

13.Barcha o`simliklar

5. (Q – 21 ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

---

Bizlar palov damlashga ayollarga nisbatan o‘zimizni ustasi farang deb bilamiz.

- 1.Ustasi farang deb bilamiz
- 2.Ozimizni bilamiz
- 3.Ayollarga nisbatan ustasi farang
- 4.Palov damlashga ustasi farang

#### 5Bizlar bilamiz

6. (Q – 21 ball) Keltirilgan parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning to‘g‘ri izohini yozing.

“Men o‘qiydigan 3-«A» sinfida yoshi anchaga borgan, tishlari to‘kilib qolgan, ammo juda muloyim, mehribon rus kampiri dars berardi. Bir oydan beri bu kampir — hozir ism-shariflari yodimda yo‘q — kasal bo‘lib, o‘rniga yosh tatar yigitcha dars bera boshlagan edi. Qattiq oqsoqlanib yuradigan bu yigitcha bizga qo‘shni bo‘lmish raykom kotibining qaynisi bo‘lib, dadam qamalganlaridan keyin menga o‘qrayib qaray boshlagan edi...

Shu-shu battar mung‘ayib, avvalgidan battar oqsoqlanib qolgan o‘qituvchi menga achinib qaraydigan, yo‘lakdami, hovlidami — tanho yurganimni ko‘rsa, boshimni silaydigan bo‘lib qolgandi”.

oqsoqlanib – cho`loqlanib

raykom kotibining – tuman kotibining(rayon komiteti , ya`ni mahalliy darajadagi kommunistik partiya)

mung‘ayib – g`amgin

7. (Q – 21ball) Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidan keltirilgan parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning to‘g‘ri izohini yozing.

... Birov o‘choq qurmoqda, birov o‘tin yormoqda, birov hovliga suv sepib, so‘riga palos yozmoqda. ... U meni imlab chaqiradi, qo‘lidagi ro‘molidan do‘ppimga

---

ikkiuch bosh chillaki uzum soladi... Tog‘am buloq bo‘yiga cho‘nqayib, yuzini yuvar,

lekinoyim esa egnida atlas ko‘ylak, boshida chetlariga gunafsharang gul tikilgan ipak durra... uning yonida turardi.

palos –tuksiz gilam

chillaki – ertapishar, ertagi

durra – ayollar boshiga o`raydigan kichik ro`mol

8. (Q – 21ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Filni katta va vahimali xonaga qamab, umrida ko‘rmagan kishilarga ko‘rsatishdi.

Kishilar avval filni paypaslab ko‘rishdi.

Filni paypaslab ko`rishdi

Avval paypaslab ko`rishdi

Kishilar paypaslab ko`rishdi

Kishilarga ko`rsatishdi

Umrida ko`rmagan kishilarga

Xonaga qamab

Vahimali xonaga

Katta va vahimali

Filni ko`rsatishdi

9. (Q – 21 ball) Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidan keltirilgan

parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning to‘g‘ri izohini yozing.

... Bir parcha sariq qog‘ozga pala-partish yozilgan nomada amir Iskandar shahzoda Abdullatifning hirovul qo‘sishnlari pistirmadan chiqib, uning qalb qo‘sishnlariga hamla qilganini yozgan edi...

– Hayhot! –dedi. – Shahzodada tosh otg‘uvchi arrodalar bordur, taqsir!..

hirovul –Qo`shining old tomoni

qalb – qo`shin markazi

arroda – tosh otadigan qurol (Asos 9-sinf adabiyot darsligi 185-186-betlar)

10. (Q – 21 ball) Ushbu biriklarni so‘z birikmasi va so‘z qo‘shilmasi kabi ikki guruhga ajratib yozing.

Yoshlar va kelajak, devor bo‘ylab qaramoq, yosh-u qari, buloqday tiniq, sen-la men,

Vatan uchun kurashmoq, telefon orqali suhbat qurmoq, yurtim shamoli, o‘z yurting,

zimdan qaramoq, qalam bilan yozmoq, buloq kabi sof.

a) teng bog‘lanish (so‘z qo‘shilmasi): yoshlar va kelajak, yosh-u qari, sen-la men

b) so‘z birikmasi: devor bo‘ylab qaramoq, buloqday tiniq, Vatan uchun kurashmoq, telefon orqali suhbat qurmoq, yurtim shamoli, o‘z yurting, zimdan qaramoq, qalam bilan yozmoq, buloq kabi sof

#### 4-savol

1. (Q- 21ball) Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasidan keltirilgan parchada ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni izohlang.

...Qobil bobo yerga qarab tek qoldi.

– Qidirtirsakmikin-a? – dedi amin chinchalog‘ini etigining ostiga artib, –

suyunchisi nima bo‘ladi? Suyunchisidan chashna olib kelinmadimi?

...Bir hafta o‘tdi Bu bir hafta ichida kampir “duoning zo‘ri bilan qulf ochadigan” azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo‘xori, ikki kalava ip eltdi...

**chashna –tatib ko`rish uchun namuna**

azayimxon –afsun o`qib kasallarni davolovchi , muammolarni hal qiluvchi kishi obdastagardon –duo o`qib o`g`rini topish

2. (Q – 21ball) Gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo‘laklarni aniqlab, turini yozing.

Turobjon: – (Qaytib kelib, uyga qaragancha.) Kuchingiz yetmaydi-yov, dada,

Qumri: – Bo‘laqol, bolam. (Sumkani olib, o‘g‘lini yetaklaganicha.) Yaxshi-yomon gap o‘tgan bo‘lsa, xafa bo‘lmang, dadasi... (Ketadi.)...

Olimjon: – Shunaqa desayam bo‘ladi. Lekin garaj yotoqxona tipida quriladi. Eng asosiysi, Qo‘chqor aka, bu robotlar arzonga tushadi. Yoqilg‘i kerak emas, batareyalarda ishlaydi. Ikkinchidan ularni tinimsiz ishlatish mumkin. Issiq demaydi,

sovuj demaydi, kechasimi, kunduzimi – ishlayveradi!

Qo‘chqor: Oylik ham so‘ramaydimi?

Olimjon: – Albatta-da!..

**Kiritmalar:** Qaytib uyga qaragancha, sumkani olib, o‘g‘lini yetaklagancha, ketadi, ikkinchidan....

**Undalma:** dada, bolam, dadasi, Qo‘chqor aka

3. (Q – 21ball) G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridan keltirilgan parchadan

ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning izohini yozing:

Hozir chiqqan o‘rimiz daryoga nisbatan Quri kalas deb nomlangan ekan...

Uzumchi g‘ayribuddiyor ekanimni fahmlab, ba’zi maslahatlarni berdi. Bu qishloqda

Sariboy bo‘lis degan katta yer egasi bor ekan.

**o‘r – tepalik, balandlik**

**g‘ayribuddiyor –musofir**

**bo‘lis – hokim, boshliq**

4. (Q – 21ball) Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi tragediyasidan

keltirilgan parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning to‘g‘ri izohini yozing.

Ishingiz bo‘lmishdir, doston tillarda,

Sizni kutmakdadir ezilgan o‘lka,

Boqar intizor-la doimo yo‘lga.

Sizga hasadkorlar tamom pushaymon,

Onangiz, singlingiz qal’ada omon.

Sizga yuborilar sipohiy xil’at...

**hasadkorlar – hasadchi**

**sipohiy – qo`shin, askar**

**qal’ा – bino**

5. (Q – 21ball) Said Ahmadning “Ufq” romanidan keltirilgan parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning to‘g‘ri izohini yozing.

“Zebi qumg‘ondan sopol piyolaga choy quyib yigitga olib bordi. Yigit bir dam ketmonini yerga tashlab qo‘lidan piyolani oldi. Zebiga qarab-qarab simira boshladi.

Tursunboy tamshandi. Sho‘r ko‘lmak ichaverib Tursunboy choy ta’mini unutayozgan edi.”

**qumg‘ondan -suv qaynatuvchi moslama**

**tamshandi - chaynadi**

**ko‘lmak – suvi kam to`planadigan chuqurcha**

6. (Q – 21ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Agar yolg‘iz turganingda kimmidir eslab, yuzingda tabassum paydo bo‘lsa, bu narsa o‘sha insonga bo‘lgan muhabbatning alomatidir.

**1. Muhabbatning alomatidir**

**2. Insonga bo‘lgan muhabbatning**

3. O`sha muhabbatning
4. Narsa alomatidir
5. Bu nars
6. Yuzingda tabassum paydo bo`lsa
7. Eslab paydo bo`lsa
8. Kimnidir eslab
9. Yolg`iz turganingda paydo bo`lsa

10.7. (Q – 21ball) Gap bo‘laklari bilan aloqaga kirishmaydigan bo‘laklarni aniqlab,

ularning turini yozing.

- Bobojon, nega indamadingiz, maslahat bermadingiz? – dedi Azimjon bobosining yoniga borib o‘tirarkan.
- Men shu uzundan uzoq umrida-chi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanch holga tushgan emasdim, – dedi Ochil buva...
- ... Nazarimda, qismat ham sizning qo‘lingizda...

**Undalma:** bobojon, bolam.

**Kiritmalar:** nazarimda.

8. (Q – 21ball) Hojiakbar Shayxovning “Birinchi sinov” hikoyasidan keltirilgan parchadan ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning to‘g‘ri izohini yozing.

Kema ekipaji bor-yo‘g‘i ikki kishi – u paytda hali dunyoga kelmagan hikoyamiz qahramoni jajji Shahnozaning otasi va onasidan iborat va ularning har ikkovi endi o‘ttiz yoshga qadam qo‘yishgandi... Bu davrda fazogirlar yo‘lda farzand ko‘rishlari, ularni o‘qitib, tarbiya qilishlari va keyinchalik kemani boshqarishni ularga topshirishlari lozim edi... Axir, qachon ekspeditsiyaga biron foyda keltira boshlayman...

ekipaj – kemani boshqaruvchilar

fazogir – fazoni , koinotni zabit etuvchi

ekspeditsiya – ilmiy maqsadda uyushtirilgan safar

9. (Q – 21ball) Grammatik bog‘lanishlarni aniqlab yozing.

Kampirning nevaralariga hayhaylashi, bolalarning quvnoq qahqahasi, ustiga kichkintoylarni chiqarib olgan Asliddinning jo‘rttaga voyvoylashi ochiq darvoza osha ko‘chaga eshitilib turardi.

1.ko`chaga eshitilib turardi 2.darvoza osha eshitilib turardi

3.voyvoylashi eshitilib turardi

4.Asliddinning voyvoylashi

5.ustiga kichkintoylarni chiqarib olgan Asliddinning

6.Qahqahasi eshitilib turardi

7.quvnoq qahqahasi

\_8.bolalarning qahqahasi

9.hayhaylashi eshitilib turardi

10.nevaralariga eshitilib turardi

11.Kampirning hayhaylashi eshitilib turardi

10. (Q – 21ball) G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asaridan keltirilgan parchadan

ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning to‘g‘ri izohini yozing.

Ha, mayli, sal o‘zingni tutib olguningcha o‘n-o‘n besh kun ishlab tur. Keyin yo‘lingni topib olarsan... – degan dudmol maslahat berdi. Bitta bo‘s sh sopol tovoqqa

bir cho‘mich go‘ja quyib berdilar. Ikki burda jaydari non bilan shu oshni maza qilib ichib oldim.

dudmol – mujmal

go‘ja – bug`doy yoki makkajo`xoridan tayyorlanadigan ovqat

jaydari non – oddiy, kichkina non

### **5-savol**

1. (M – 22 ball) Ovchining tutgan yo‘li haqida mulohaza yuriting. Fikrlaringizni hayotiy misollar asosida kamida 4 –5 ta gap orqali ifodalang.

Bir ovchi kaklik tutib olibdi. Uni o‘ldirmoqchi bo‘lgan ekan, kaklik: Meni tirik qoldirsang, evaziga to‘ringga juda ko‘p kakliklarni ilintirib beraman”, - debdi.

Ovchi kaklikni qo‘yib yuborishga moyil bo‘lib turgan ekan, ammo uning gapini eshitgach g‘azablanib shartta o‘ldiribdi.

**Chunki o`zini o`ylab , yaqinlarini baloga girifor qiluvchi , yaqinlariga xoinlik qiluvchi kishi hech qachon boshqa bir odamga do`st bo`lolmaydi.**

2. (M – 22 ball) Chingiz Aytmatov “Asrga ta’tigulik kun” romanidan keltirilgan parchadagi obrazning o‘y-fikrlari asosida o‘z xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang.

“... U kim bo‘lsa ham mayli, taqdir boshiga shunday qora kunlarni solib, dushmanlar shunchalik tahqir etgan ekan, bu – uning aybi emas. Mayli, ovsar bo‘lsa ham o‘g‘lini qullikda, asoratda qoldirib ketmaydi. Bosqinchilar tutqun etilgan farzandlarimizni mayib-majruh qilganlarini, xo‘rlab, aqldan ozdirib, notavon bir ahvolga solib qo‘yganlarini naymanlar ko‘rib qo‘ysin-da, ornomusdan qo‘lga quroq olsin...”

Ushbu matn adolat, ota-onas sevgisi va kurashga undash kabi g`oyalarga asoslanadi. U taqdirga qarshi kurashish , yolg`on ayblovlardan qochish , farzandlarini ezilishdan himoya qilish va zulmga qarshi kurashishni ta`kidlaydi. Bu yurtni , oilani va farzandlarni himoya qilishning muhimligi haqida kuchli va ruhlantiruvchi fikrlarni o‘z ichiga oladi.

3. (M – 22 ball) Thakurning “Shubxa” hikoyasidan keltirilgan parcha asosida chiqargan xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang.

...Alamdan yuraklari siqilgan Shubxaga ko‘zyoshlari sira omon bermasdi. Bir

---

necha kundan buyon uni noma'lum bir xavft-xatar qiynar va u tilsiz bir jonivordek, goh onasi, goh otasi ketidan yurardi. Qiz shahlo ko'zlarini katta ohib, biror narsa anglash niyatida, hayajon bilan tikilsa ham, ota-onasi unga biror og'iz so'z aytmas edi.

Bu matn ichki iztirob, tushunilmaslik va yolg'izlik his-tuyg`ularini ifodalaydi. Shubxa o`zining ichki holatini tushuntirishga harakat qiladi, lekin ota-onasi unga yordam bermaydi, e`tibor bermaydi. Bu uning dunyosidagi noaniqlik, xavfni anglash uchun kurashini tasvirlaydi. Shuningdek, bu matn oila va farzandlar o`rtasidagi aloqadagi bo`shliqni va muhimjihatlarini ko`rsatadi

4. (M – 22 ball) Quyida berilgan parcha asosida chiqargan xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang.

Dunyo ne'matlariga ahamiyat bermaydigan, o'zini juda kamtar tutadigan buyuk islom olimlaridan biri faqat bir kishi o'tishi mumkin bo'lган tor yo'lakda shaharning o'ziga bino qo'ygan katta boylaridan biri bilan to'qnash kelibdi.

Qorni kajavaday keladigan boy:

- Men bir devonaga yo'l berib chetga chiqmayman! – deb pishqiribdi. Haligi olim kishi yo'l berar ekan, g'oyat sokin ohangda debdi:
- Men esa yo'l beraman!

Bu dunyoda moddiy boylikdan ko'ra ma`naviy boylik muhim hisoblanadi. Buni biz manashu parcha orqali ham bilib oldik. Moddiy boy bo'lган kishining ma`naviy qiyofasi olim kishi oldida naqadar ojiz ekanligini uning gap-so`zlari orqali fahmlab, olim kishining muloyim va o'zini sokin tutishi bu uning irodasi va ma`naviy qiyofasining yuqori ekanligidan dalolatligini anglay oldik.

5. (M – 22 ball) “Rahmat sizga, xonim” hikoyasidagi parchadan ajratilgan jumla haqida chiqargan xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang.

Ovqatlanib bo'lishgach ayol bolaning qo'liga o'n dollar tutqazdi...

- Bunga o'zing xohlagandek, zamsha tufti sotib olgin. Lekin keyingi safar bu

---

xatoni takrorlama – menga o‘xshagan birortasining cho‘ntagiga qo‘lingni suqma.

Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo‘lga boshlamasin.

Inson doimo orzu-havaslar bilan yashaydi. Lekin o`sha orzularga egri , noplak yo`llar bilan emas, balki to`gri yo`ldan borib erishmoq darkor. O`g`rilik orqali topilgan daromad, orzular sari yetaklovchi yo`lga to`sinq va g`ov bo`ladi. Shu bois har bir odam halollik bilan, o`z mehnati bilan kun kechirishi lozim. “Rahmat sizga xonim” hikoyasida ham o`g`irlikning salbiy oqibatlari haqida qahramonga tushuntirilgan.

6. (M – 22 ball) Ushbu hadisdan chiqargan xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang.

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning zavjalari Oyisha onamiz raziyallohu anho bunday degan ekanlar: “Musulmon kishiga yetadirgan har bir musibat, hattoki badanining biror yeriga kirgan tikan ham uning gunohiga kafforat bo‘lg“usidir”.

Bu hadis mazmunan shuni anglatadiki, musulmon kishiga yetgan har qanday musibat -katta bo`lsin yoki kichik-uning gunohlariga kafforat bo`ladi. Hatto badaniga kirgan kichkina tikan ham Allohning rahmati ila uning ayrim gunohlarini yuvishga xizmat qiladi. Bu hadis insonni sabrli bo`lishga , boshiga kelgan har qanday sinovni Alloh tomonidan bo`lgan sinov va poklanish deb qabul qilishga undaydi.Chunki Alloh mo`min bandasini turli mushkulotlar bilan sinab , shu orqali uni poklaydi va unga savob beradi.

7. (M – 22 ball) Ushbu matndan chiqargan xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang. “... har kim tug‘ulgan, o‘sigan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissityug‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayirilsa,

o‘z yeridagi kabi rohat-rohat yashamas, maishati talx bo‘lub, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar”. (Abdulla Avloniy)

Har bir inson o`zi tug`ilib o`sgan yurtini , vatanini jonidan aziz deb biladi. Vatanga bo`lgan muhabbat insoniy tuyg`ularning eng poklaridan biridir. Bu

---

tuyg`u hatto hayvonlar uchun ham yet emas.

Bu shuni anglatadiki, vatanni sevish-tabiiy, tug`ma tuyg`u bo`lib, u inson qalbida chuqur joylashgan. Demak , vatanni sevish -nafaqat burch , balki tabiatimizning bir bo`lagidir

8. (M – 22 ball) Ushbu matndan chiqargan xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang.

Gar rafiq o`lsa bu tavfiq-u muyassar bo`lsa adl,

Shaksiz, o`lur ul kishining manzili bog`i jinon.

Yaxshi avsof ila qil ushbu jahon ichra suluk,

To saning avsofing o`lg`ay olam ichra doston.

(tavfir – ko`mak, yordam, bahramandlik; bog`i jinon – jannat bog`i; avsof – vasflar,

ta`riflar; suluk – yo`l)

Agar insonning yo`ldoshi yaxshi, solih kishi (solih amallar) bo`lsa -bu katta baxt, bunday kishining oxiratdagi manzili jannat bog`lari bo`ladi. Bu dunyoda yaxshi xislatlar , go`zal axloq bilan yur , shunda senga oid xotiralar , fazilatli hayoting butun olamga doston bo`ladi.

9. (M – 22 ball) Ushbu matndan chiqargan xulosangizni 4 – 5 ta gap orqali ifodalang.

Tabibga ko`rsatmay kasal tomirin,

Tuzalmoq xayoli xomdur, hushyor bo`l.

Bilmaganingni so`ra, so`rash nomusi,

Bilki, bilimdonlik va hurmatga yo`l. (Shayx Sa'diy, “Guliston”)

\_\_\_Muammodan qochib , uni yashirmaslik, aksincha , hal qilish uchun mutaxassis yoki bilimli kishidan yordam so`rash kerak. Bu insonni haqiqatga , bilimga va izzat-e`tiborga yetaklaydi. So`rash-ojizlik emas, aksincha, aql va kamtarlik belgisi.

10. (M – 22 ball) Quyidagi yo`naltiruvchi savollar asosida Abdulla Qodiriyning

“Mehrobdan chayon” romani haqidagi xulosalaringizni yozing.

1. Abdulla Qodiriy nima uchun o‘z asarini “Mehrobdan chayon” deb nomlagan?

---

\_ ”Mehrobdan chayon”- muqaddas joyda , ya`ni poklik ko`rinadigan joyning o`zida yashiringan xiyonat va yovuzlik borligini bildiradi. A.Qodiriy bu orqali diniy ma`rifatdan yiroq, aslida xalqni ezayotganlarni fosh qilgan.

2. Siz asarni qanday nomlagan bo‘lar edingiz? Fikringizni asoslab yozing.

“Niqob ortidagi zulm”

Chunki dinga va poklikka niqob tutgan zolimlar haqida yozilganda bu asar.

Javoblarni mualliflik huquqini saqlagan holda tarqating, iltimos.

Barchangizni kanalda kutaman. <https://t.me/Hovvajon>